ISSN:
3060-5245

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Iyun № 6, 2026

Агробизнес, наука и технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, scienece and technology

№ 083688

Platform & workflow by OJS / PKP

Toshkent-2026

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o‘rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To‘lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay’atining xalqaro a’zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog‘iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay’ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug‘bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G‘ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o‘g‘li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o‘g‘li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma’ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug‘ani Shuxrat o‘g‘li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo‘ldoshbek Akmal o‘g‘li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA’LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:
Ma’lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

Elektron nashr, 907 sahifa.
E’lon qilishga 2026-yil 30-iyunda ruxsat etildi.

“AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR” ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNALI

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati.

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI

06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik
06.01.02 – Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik
06.01.03 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika
06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik
06.01.06 – Sabzavotchilik
06.01.07 – Mevachilik va uzumchilik
06.01.08 – O‘simlikshunoslik
06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish
06.01.11 – Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash
06.02.02 – Qishloq xo‘jaligi hayvonlarini oziqlantirish va ozuqa tayyorlash texnologiyasi
06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi
06.03.01 – O‘rmon ekinlari. Seleksiya, urug‘chilik va shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish. O‘rmonlar agromelioratsiyasi va himoya o‘rmonlarini barpo etish, Dorivor o‘simliklar introduksiyasi, yetishtirish texnologiyasi va agrofarmekologiyasi.

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

BAKAYEV ZIYOVUDDINXON TOSHBOLTA O‘G‘LI
Turizm va mehmondo‘stlik sohasining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati……16
ИБРАГИМОВА МАДИНА ИСМОИЛОВНА
Инвестиции в человеческий капитал как фактор экономического роста…..25
MAXMUDOV JASURBEK ERGASHEVICH
Investitsion salohiyatni oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni……35
MUROTKOSIMOV SHOXRUX ABDISALIMOVICH
Korporativ ijtimoiy boshqaruv tizimini rivojlantirishda ESG tamoyillari va raqamli texnologiyalarning roli……43
ESHMIRZAYEV SODIKJON ERKONBOY O‘G‘LI
Sanoat korxonalarida quyosh energetikasi loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish……53
IBROXIMOVA NAFOSAT ABDUSATTOR QIZI
Raqamli iqtisodiyotda mehnat unumdorligini oshirishning innovatsion mexanizmlari……60
QODIROVA MOHINUR BAHODIR QIZI
Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirishning zamonaviy mexanizmlarini takomillashtirish……69
XAYDAROVA E’ZOZA SHUKURULLAYEVNA
Korxonalarda innovatsion salohiyatni boshqarishning rivojlanish tendensiyalari……78
MAMANOV MUKHAMMADAMIN
Comparative analysis of management strategies for tourism enterprises in developed and developing countries……84
TOXIROVA NIGORA ZOKIRJON QIZI
Mintaqaviy korxonalar faoliyati samaradorligining tashkiliy va funksional diagnostik rivojlanish tendensiyalari……96
ODILOVA DILNOZAXON BARNAYEVNA
Sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning usullari……103

TOSHOV MIRZABEK HAKIMOVICH

Buxoro viloyatida sanoat va turizm integratsiyasi: iqtisodiy samaradorlik tahlili.....107

ABDULLAEV MUZAFFAR ABDUJABBAROVICH

Evaluation of the results of innovation activities, decision-making and its formation.....112

RAHMONOVA TILLAOY MALIK QIZI

Hududlararo sanoat diversifikatsiyasi asosida mintaqaviy rivojlanishni baholashning iqtisodiy-matematik modellari.....119

IBRAGIMOV AZIZ TURAYEVICH

Buxoro viloyatida erkin iqtisodiy zonalar faoliyati va asosiy ko‘rsatkichlari.....125

NIGMATJONOV SARDOR ABDUMANNOBOVICH

Hayot faoliyati xavfsizligi fanining fanlararo bog‘liqligi: nazariy asoslar va amaliy yondashuv.....138

ИЛХОМЖОНОВА ФОТИМА МУХИДДИНОВНА

Методические основы оценки инвестиционного потенциала регионов....145

RO‘ZMETOV NOSIRJON XAMIDJON O‘G‘LI

O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini oshirishning institutsional mexanizmlari va istiqbollari.....155

RAHMONQULOVA KOMILA MUHAMMADI QIZI

Surxondaryo viloyatida iqtisodiy o‘sish omillarining ekonometrik tahlili.....164

ABDUNAZAROV SAIDAXMAT ABDUMALIKOVICH, SHAMSIYEVA DILSHODA ASQARALI QIZI

Korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion boshqaruvning roli.....173

OBILOV MIRKOMIL RASHIDOVICH

Investitsiya resurslarini optimal yo‘naltirishda moliyaviy savodxonlikning roli.....178

MAMATKULOVA XURSHIDA NASRULLAYEVNA

Xitoy tajribasi asosida O‘zbekistonda kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....185

OBIDOVA FERUZA YAHYOYEVNA

Korxonalarda yashil menejment tizimini joriy etish samaradorligi.....191

BAZAROVA FAYYOZA TUXTAMURODOVNA

Korxonalar marketing boshqaruvida elektron tijorat va Omni-kanal strategiyalarini qo‘llashning asosiy jihatlari.....198

KUZIYEVA GULNOZA RASHIDOVNA, DILRABO SAYDALIYEVA BAKHRIDDIN KIZI

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati.....204

DONIYEV SHAHOB O‘TKIR O‘G‘LI, HALIMOV JAVLONBEK SHAHRIYOROVICH

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va inflyatsiya o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘lanish.....210

OXUNOVA OYGUL USMONJON QIZI

Genderlik tengligi va barqaror mehnat bozorini rivojlantirish: OECD va Markaziy Osiyo mamlakatlarining qiyosiy tahlili.....215

ISLOMOV JAVOHIR ISKANDAR O‘G‘LI

O‘zbekiston tijorat banklarida islomiy moliya darchalari faoliyatining buxgalteriya hisobini yuritish va dasturiy ta’minot integratsiyasi istiqbollari.....221

МУХАММАДИЕВ НАУФАЛБЕК АЗИЗБЕК УГЛИ

Влияние электронной коммерции на рост валового внутреннего продукта нашей страны.....230

TAIROVA ZARNIGOR MAMMAT QIZI

Zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarining resurs salohiyatini boshqarish usullari.....238

BAZAROVA FAYYOZA TUXTAMURODOVNA

To‘qimachilik tovarlari raqobatbardoshligini oshirishda iste’molchilar xulq-atvorining ta’siri.....248

ЮЛДАШОВА ГАВХАР ХУСНИТДИНОВНА

Приоритетное значение инновационных подходов и стратегического развития в системе корпоративного управления.....257

ABDUSALOMOVA FARIDA OLIMJON QIZI

Raqamli transformatsiyaning xizmat ko‘rsatish sohasida bandlik va daromadlarga ta’siri.....262

XASANOVA RAYXON BOZOROVNA

Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yordamida banklarda innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'llari.....271

OBIDOVA FERUZA YAHYOYEVNA

Korxonalarda innovatsion madaniyatni shakllantirish mexanizmlari.....279

SULEYMANOV FARRUX RAXIMJON O'G'LI

Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan infratuzilma aktivlarini boshqarish modellari.....284

TURDIMURATOV MAQSUD MUZAFFAROVICH

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida qurilish sohasida zamonaviy boshqaruv tizimlarini iqtisodiy ahamiyati.....290

TURUMOVA DILDORA ABDUMANNONOVNA

Tijorat banklarida daromad va xarajatlar hisobining zamonaviy holati va rivojlantirish istiqbollari.....297

SHODMONQULOV KAMOLIDDIN MURODILLAYEVICH

Kichik sanoat zonalarini rivojlantirish orqali hududiy muammolarni bartaraf etish yo'llari.....304

MO'MINOVA KANIZAXON YO'LDASHALI QIZI

Kichik korxonalarda eksport salohiyatini oshirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.....311

MAXTIMOVA ZARAFSHON OLLOYOROVNA

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida yashil moliyalashtirishga ta'sir etuvchi omillarni optimallashtirish istiqbollari.....322

TAIROVA ZARNIGOR MAMMAT QIZI

O'zbekiston ishlab chiqarish korxonalarining resurs salohiyatidan samarali foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.....333

ASLANOVA DILNOZA FATILLOYEVNA

Qishloq xo'jaligi va turizm integratsiyasi: agroturizmning mintaqaviy iqtisodiyotga ta'siri.....340

SAFAROV BEKZOD ISTAMOVICH

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-texnik mahsulotlarning mohiyati, turlari va o'ziga xos xususiyatlari.....348

LAZIZ ABDUGHAFFOROVICH URINOV

Main directions of banking services development in Uzbekistan and their impact on efficiency of banking activity.....356

MIRZAYEVA RO‘ZIGUL AZAMAT QIZI, ESHQULOVA NASIBA NORMO‘MINOVNA

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanish asosida takomillashtirish.....363

SULEYMANOV FARRUX RAXIMJON O‘G‘LI

Madaniy meros obyektlari va tarixiy binolarni aktivlar menejmenti asosida muhofaza qilish va saqlash metodikasi.....370

SRAJIDINOVA NODIRA SHAVKATOVNA

Sanoat tarmoqlarini ixtisoslashuv va diversifikatsiya asosida rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi.....378

АКАБИРХОДЖАЕВА ДИЛФУЗА РУСТАМОВНА

Оптимизация запасов энергетических ресурсов агропредприятия на основе экономико-математического моделирования в Mathcad.....384

ALIMOVA SHAMSIYA ABIDOVNA

Ta’lim xizmatlari eksporti milliy iqtisodiyotni rivojlantirish omili sifatida.....391

UROZOVA SHAXLO, HAZRATQULOV SHAHBOZ

Raqamli iqtisodiyot sharoitida O‘zbekistonda investitsiyalarni rivojlantirish yo‘llari.....399

ХОДЖАЕВА ДИЛБАР

Сельский туризм как инструмент сокращения бедности сельского населения: опыт и перспективы Бухарской области.....406

KARIMOV SHAHBOZXO‘JA XAMDAMJON O‘G‘LI

Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....422

МУХАММАДИЕВА НОДИРА АХМАДОВНА

Территориальный маркетинг в туризме: зарубежный опыт формирования и реализации концепции.....428

SIROJEV NURBEK G‘ULOMIDDIN O‘G‘LI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida risklarni boshqarish tizimlarini rivojlantirishning xorij tajribalari.....440

ELBOYEVA SHAXZODA OLIMOVNA

Ipakchilik klasterlari uchun integratsiyalashgan investitsion boshqaruv modeli.....446

URAZMATOV JONIBEK MUSURMANOVICH

Elektron hisob-faktura va real vaqt rejimidagi nazorat mexanizmlarining iqtisodiy tahlili.....459

RAHIMOVA DURDONA RAVSHANOVA

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda raqamli transformatsiya jarayonlarini takomillashtirish yo‘nalishlari.....465

XODJAYEVA MUHAYYO ULMASOVNA

Xalqaro audit standartlarini o‘rganishda auditning shakllanishi va turlari.....475

FARMONOV OTABEK HAYITMURODOVICH

O‘zbekiston Respublikasi Jahon savdo tashkilotiga a’zoligining qishloq xo‘jaligiga ta’siri.....484

UBAYDULLAYEV G‘AYRAT ZUVAYTOVICH, G‘ANIYEV SARDOR TOSHMURODOVICH

Raqamli transformatsiyaning boshqaruv samaradorligiga ta’sirini empirik tahlil qilish.....491

МАКСУМХАНОВА АЗИЗАХОН МУКАДИРОВНА, САЙДАЛИМОВА ДИЁРАХОН БАХОДИРОВНА, ТУХЛИЕВ НУРИСЛОМ УЧКУН УГЛИ

Развитие деятельности сферы услуг с использованием цифровых технологий.....498

MAHMUDOV FAYZULLA MURODULLAYEVICH

Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy soha rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlarining ahamiyati.....506

BEGBUTAEV HASAN ARALOVICH

Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning institutsional omillari.....512

UBAYDULLAYEV G‘AYRAT ZUVAYTOVICH, SHODMANOV TOSHTEMIR RO‘ZIYEVICH

Raqamli transformatsiya va boshqaruv samaradorligini kompleks baholash....520

BEGBUTAEV HASAN ARALOVICH

Yashil iqtisodiyot va ekologik investitsiyalarning samaradorligi.....526

2026-yil, iyun.
№6-son.
ISSN: 3060-5245

ELEKTRON HISOB-FAKTURA VA REAL VAQT REJIMIDAGI NAZORAT MEXANIZMLARINING IQTISODIY TAHLILI

URAZMATOV JONIBEK MUSURMANOVICH
Guliston davlat universiteti
Buxgalteriya hisobi va moliya kafedrasi dotsenti, (PhD)
E-mail: jonibei1186@gmail.com
ORCID: 0009-0005-9468-5761

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) ma’murchiligini raqamlashtirish jarayonining fiskal natijalari empirik tahlil qilinadi. Elektron hisob-fakturalar (EHF) tizimi, elektron tovar-transport yo‘riqnomalari (ETTN), cross-matching mexanizmi va sun'iy intellektga asoslangan xavf-baholash tizimining undirish samaradorligiga ta'siri o‘rganiladi. 2019-2025-yillar ma’lumotlari asosida e-invoys qamrovining QQS tushumlariga ta'siri tahlil qilinib, raqamlashtirish natijasida yillik 100-600 mlrd so‘mdan ortiq qo‘shimcha fiskal samara olinishi mumkinligi asoslandi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasida QQS ma’murchiligini yanada takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.
Kalit so‘zlar: qo‘shilgan qiymat solig‘i, raqamlashtirish, elektron hisob-faktura, real vaqt nazorati, fiskal samara, cross-matching, sun'iy intellekt, soliq ma’murchiligi.

Аннотация. В данной статье эмпирически анализируются фискальные результаты цифровизации администрирования налога на добавленную стоимость (НДС) в Узбекистане. Исследуется влияние системы электронных счетов-фактур (ЭСФ), электронных товарно-транспортных накладных (ЭТТН), механизма перекрёстной проверки (cross-matching) и системы оценки рисков на основе искусственного интеллекта на эффективность взимания НДС. На основе данных 2019-2025 годов проанализировано влияние охвата системы э-инвойс на поступления НДС и обосновано, что в результате цифровизации возможно получение дополнительного фискального эффекта свыше 100-600 млрд сумов в год. Через систему ЭСФ выявлен скрытый оборот 4 550 предприятий на сумму 593,1 млрд сумов и доказана необходимость взыскания дополнительного НДС в размере 123,2 млрд сумов. Исследование завершается практическими рекомендациями по дальнейшему совершенствованию администрирования НДС в Республике Узбекистан.
Ключевые слова: налог на добавленную стоимость, цифровизация, электронный счёт-фактура, контроль в реальном времени, фискальный эффект, перекрёстная проверка, искусственный интеллект, налоговое администрирование.

Abstract. This article empirically analyses the fiscal outcomes of digitalizing value added tax (VAT) administration in Uzbekistan. The impact of the electronic invoice (EHF) system, electronic waybills (ETTN), cross-matching mechanism, and AI-based risk assessment system on collection efficiency is studied. Based on 2019–2025 data, the effect of e-invoice coverage on VAT revenues is analysed, and it is substantiated that digitalization can provide additional fiscal gains of more than 100–600 billion soums annually. The research concludes with practical recommendations for further improvement of VAT administration in the Republic of Uzbekistan.
Keywords: value added tax, digitalization, electronic invoice, real-time monitoring, fiscal impact, cross-matching, artificial intelligence, tax administration.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda soliq ma’murchiligini raqamlashtirish davlat fiskal siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli soliq ma’murchiligiga o‘tgan mamlakatlarda QQS

2026-yil, iyun.
№6-son.
ISSN: 3060-5245

undirish samaradorligi koeffitsienti (C-efficiency) o‘rtacha 0,15-0,25 punktga oshadi [1]. Hindistonning GST Network platformasi, Estoniyaning oldindan to‘ldirilgan deklaratsiya tizimi va Braziliyaning NF-e elektron invoys tizimi raqamlashtirish orqali soliq tushumlarini sezilarli oshirish mumkinligini isbotladi.

O‘zbekiston Respublikasida QQS ma’murchiligini raqamlashtirish 2019-yildan boshlab izchil amalga oshirilmoqda. 2025-yil 4-sentabrdagi PF-153-son Prezident farmoni raqamli transformatsiyaning yangi bosqichini belgilab, 2026-yil 1-yanvardan IMF ekspertlari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan EHF xavf-baholash avtomatlashtirilgan tizimini ishga tushirishni ko‘zda tutdi [2]. Biroq raqamlashtirish jarayonining fiskal natijalarini empirik tahlil qilish va uning undirish samaradorligiga miqdoriy ta'sirini baholash bo‘yicha O‘zbekiston sharoitida maxsus tadqiqotlar hali yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekistonda QQS ma’murchiligini raqamlashtirish jarayonining fiskal natijalarini empirik tahlil qilish va elektron hisob-faktura hamda real vaqt nazorat mexanizmlarining undirish samaradorligiga ta'sirini miqdoriy baholashdan iborat. Tadqiqot quyidagi asosiy savollarni ko‘rib chiqadi: birinchidan, e-invoys tizimining qamrovi kengayganda QQS tushumlari qanday o‘zgaradi; ikkinchidan, cross-matching mexanizmi soliq bo‘shlig‘ini kamaytirishga qanday hissa qo‘shadi; uchinchidan, AI-xavf-baholash tizimining audit samaradorligiga ta'siri nima.

ADABIYOTLAR SHARHI

QQS ma’murchiligini raqamlashtirish masalalari xalqaro miqyosda faol o‘rganilmoqda. Keen va Smith (2006) o‘zlarining fundamental ishlarida QQS firibgarligi va soliq qochirish mexanizmlarini tahlil qilib, raqamli nazoratning muhimligini asosladilar [3]. Bird va Gendron (2007) rivojlanayotgan mamlakatlarda QQS zanjiri yaxlitligini ta'minlashda invoys tizimining hal qiluvchi roliga alohida e'tibor qaratdi [4].

Xalqaro amaliyotda raqamli soliq ma’murchiligining fiskal natijalariga bag‘ishlangan ko‘plab empirik tadqiqotlar mavjud. Pomeranz (2015) Chilida o‘tkazgan tadqiqotda e-invoys tizimining joriy etilishi QQS tushumlarini 8-12% ga oshirganini empirik jihatdan isbotladi [5]. Fan, Keen va Lockwood (2019) 30 ta mamlakat bo‘yicha panel tahlil o‘tkazib, raqamli ma’murchilik ko‘rsatkichi 10% ga oshganda QQS tushumi 1,8-2,3% ga ko‘tarilishini aniqladi [6].

Yevropa Ittifoqining «VAT in the Digital Age» (ViDA) direktivasi (2025) raqamli hisobot standartlarini va platforma iqtisodiyotining soliq majburiyatlarini belgilab, 2028-2032 yillar uchun yo‘l xaritasini yaratdi [7]. OECD (2024) hisobotida real vaqt rejimida ma’lumotlar uzatish (RTD) tizimini joriy etgan mamlakatlarda soliq bo‘shlig‘i o‘rtacha 15-20% ga qisqargani ko‘rsatildi [8].

O‘zbekiston bo‘yicha maxsus tadqiqotlar orasida Niyazmetov (2023) QQS bo‘shlig‘ini baholash metodologiyasini xalqaro standartlarga moslashtirib, 2016-2020 yillar uchun empirik tahlil o‘tkazgan [9]. Butayev (2025) raqamli transformatsiyaning QQS undirish dinamikasiga ta'sirini o‘rganib, 2019-yildan

2026-yil, iyun.
№6-son.
ISSN: 3060-5245

keyingi islohotlarni baholagan [10]. Biroq EHF, ETTN va cross-matching tizimlarining O‘zbekiston sharoitida fiskal natijalarini kompleks empirik tahlil qilish hali yetarli darajada amalga oshirilmagan - mazkur maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda 2019-2025-yillarni qamrab oluvchi O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi, Milliy statistika qo‘mitasi va Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy ma’lumotlaridan foydalanildi. Ma’lumotlar bazasi QQS tushumi dinamikasi, e-invoys tizimida ro‘yxatdan o‘tgan subyektlar soni, EHF orqali aniqlangan soliq bo‘shlig‘i miqdori va QQS to‘lovchilar soni ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda raqamlashtirish jarayonining asosiy komponentlari - EHF, ETTN, cross-matching va AI xavf-baholash - tavsifiy statistika va dinamik tahlil usullari yordamida o‘rganildi. Ikkinchi bosqichda e-invoys qamrovi va QQS tushumlari o‘rtasidagi bog‘liqlik korrelyatsion tahlil orqali baholandi. Uchinchidan, raqamlashtirish fiskal samarasini miqdoriy baholash uchun quyidagi formula qo‘llanildi:

$$FS = (Y_t - Y_0) - (\Delta X1 \cdot \beta 1 + \Delta X2 \cdot \beta 2)$$

Bu yerda: FS - raqamlashtirish fiskal samarasi; Y_t - joriy QQS tushumi; Y_0 - bazaviy QQS tushumi; ΔX1 - iste'mol o‘sishi; ΔX2 - stavka o‘zgarishi; β1, β2 - 4.2-bo‘limda hisoblangan ekonometrik model koeffitsientlari.

Raqamlashtirish tizimlarining audit samaradorligiga ta'sirini baholash uchun aniqlangan soliq bo‘shlig‘i hajmi va umumiy QQS tushumi o‘rtasidagi nisbat ko‘rsatkichidan foydalanildi. Tadqiqotning cheklovlari sifatida ma’lumotlar bazasining qisman ochiq ekanligi va 2026-yildan ishga tushirilgan AI xavf-baholash tizimining to‘liq baholash imkoniyatining hali mavjud emasligi qayd etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda QQS ma’murchiligini raqamlashtirish holati: O‘zbekistonda QQS ma’murchiligini raqamlashtirish to‘rt asosiy komponent orqali amalga oshirilmoqda. Elektron hisob-fakturalar (EHF) tizimi - joriy etilgan va barcha QQS to‘lovchilar uchun majburiy. Elektron tovar-transport yo‘riqnomalari (ETTN) tizimi - joriy etilgan va yirik tovar operatsiyalari uchun majburiy.

1-jadval

O‘zbekistonda QQS ma’murchiligini raqamlashtirish komponentlari va ularning holati

Komponent	Funksiyasi	Holati (2025)	Qamrov
EHF (e-invoys)	Har bir operatsiyani qayd etish	Joriy; majburiy	QQS to‘lovchilar
ETTN	Tovar harakatini kuzatish	Joriy; majburiy	Yirik operatsiyalar
Cross-matching	Sotuvchi-xaridor solishtirish	Qisman avtomat	Kengaymoqda
AI xavf-baholash	Real vaqtda risk aniqlash	2026 dan ishlaydi	Barcha EHF

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi ma'lumotlari va PF-153-son Farmon asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2026-yil, iyun.
№6-son.
ISSN: 3060-5245

Cross-matching mexanizmi - qisman ishlaydi, to‘liq avtomatlashtirilgan rejimga o‘tish jarayonida. AI xavf-baholash tizimi - 2026-yil 1-yanvardan IMF bilan hamkorlikda ishga tushirildi (1-jadval).

E-invoys tizimining fiskal natijalari: EHF tizimining fiskal samarasini baholash uchun eng muhim empirik ma’lumot - mazkur tizim orqali aniqlangan yashirin aylanma va QQS bo‘shlig‘i. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, EHF tizimi orqali 4 550 ta korxonaning 593,1 mlrd so‘mlik yashirin tovar aylanmasi aniqlanib, 123,2 mlrd so‘mlik QQS undirilishi kerak ekanligi aniqlangan. Bu ko‘rsatkich faqat e-invoys qamroviga kirgan subyektlar bo‘yicha natija ekanligi hisobga olinganda, raqamli nazoratning ulkan fiskal salohiyati yaqqol ko‘rinadi.

2-jadval

EHF tizimi orqali aniqlangan soliq bo‘shlig‘i ko‘rsatkichlari (2022-2025)

Yil	E-invoys tizimidagi subyektlar soni	Aniqlangan yashirin aylanma (mlrd so‘m)	Qo‘shimcha QQS undirish zaruriyati (mlrd so‘m)
2022	3 200	280,0	57,4
2023	6 800	420,5	87,3
2024	9 200	593,1	123,2
2025	12 000+	750,0	155,0

Manba: Soliq qo‘mitasi ma'lumotlari va muallif hisob-kitoblari.

2-jadval ma’lumotlari muhim qonuniyatni ko‘rsatadi: e-invoys tizimiga ulanган subyektlar soni oshgan sari aniqlangan soliq bo‘shlig‘i ham o‘sib bormoqda. Bu ikkita jihatni anglatadi: birinchidan, raqamli nazorat yashirin aylanmalarni aniqlashda tobora samaraliroq bo‘lib bormoqda; ikkinchidan, e-invoys qamrovi kengayganda aniqlash imkoniyati ham mutanosib ravishda oshadi. Agar barcha 210 000 dan ortiq QQS to‘lovchi e-invoys tizimiga to‘liq ulanganida, yashirin aylanmani aniqlash hajmi sezilarli darajada oshishi va qo‘shimcha QQS tushumi yiliga 600-900 mlrd so‘mdan oshishi mumkin edi.

Cross-matching mexanizmining samaradorligi: Cross-matching - sotuvchining chiquvchi invoysi va xaridorning kiruvchi invoysi ma’lumotlarini avtomatik solishtirish mexanizmi - QQS undirish zanjiridagi nomutanosibliklarni darhol aniqlash imkonini beradi. Mazkur mexanizm qisman ishlayotgan holatda ham muhim natijalar bermoqda: faqat EHF tizimida ro‘yxatdan o‘tgan subyektlar bo‘yicha sotuvchi va xaridor ma’lumotlari to‘liq mos kelmaslik holatlari 12-15% atrofida ekanligi aniqlangan. Cross-matching to‘liq avtomatlashtirilgan rejimga chiqqanda bu nomutanosibliklarning aksariyatini real vaqtda bartaraf etish va soliq inspektorlarining maqsadli tekshiruvlarga yo‘naltirilishini ta'minlash mumkin bo‘ladi.

2025-yilgi islohotlar doirasida audit chegaralari ham muhim jihatdan o‘zgartirildi: xavf darajasi 500 mln so‘mdan past bo‘lgan subyektlarga nisbatan audit o‘tkazmaslik, 100 mln so‘mdan past bo‘lganlarga esa dala tekshiruvi o‘tkazmaslik tartibi belgilandi. Bu tartib AI xavf-baholash tizimi bilan birgalikda ishlaydi: past xavfli subyektlar audit yukidan ozod qilinib, cheklangan inspektorlik resurslari yuqori xavfli subyektlarga maqsadli yo‘naltiriladi. Bu esa

2026-yil, iyun.
№6-son.
ISSN: 3060-5245

audit samaradorligini sezilarli oshirib, aniqlangan qo‘shimcha tushum hajmini ko‘paytiradi.

AI xavf-baholash tizimining kutilayotgan fiskal ta'siri: 2026-yil 1-yanvardan ishga tushirilgan AI xavf-baholash tizimi har bir elektron hisob-fakturani yaratish jarayonidayoq real vaqtda tahlil qilib, xavf darajasini belgilaydi. Tizim uch darajali xavf tizimida ishlaydi: past xavf (yashil) - odatdagi nazorat; o‘rta xavf (sariq) - kuchaytirilgan monitoring; yuqori xavf (qizil) - darhol tekshiruv. XVJ ekspertlari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan ushbu tizimning xalqaro analoglarida (Hindiston GSTN, Janubiy Koreya e-Tax) soliq bo‘shlig‘i 20-30% ga qisqargani qayd etilgan. O‘zbekiston sharoitida kutilayotgan ta'sir 3-jadvalda baholangan.

3-jadval

AI xavf-baholash tizimining kutilayotgan fiskal ta’siri (2026-2028)

Ko‘rsatkich	Konservativ	O‘rtacha	Optimistik
Soliq bo‘shlig‘ini qisqartirish	10-15%	15-20%	20-30%
Qo‘shimcha QQS tushumi (mlrd so‘m)	100-180	180-350	350-600
Audit samaradorligi o‘sishi	20-30%	30-50%	50-70%
Tekshiruv xarajatlarini tejash	15-25%	25-40%	40-60%

Manba: xalqaro tajriba (Hindiston, Janubiy Koreya, Braziliya) va muallif hisob-kitoblari.

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda QQS ma’murchiligini raqamlashtirish fiskal nuqtai nazardan muhim ijobiy samara berganligi va ushbu samarani yanada kuchaytirish uchun katta zaxira mavjudligini ko‘rsatadi. E-invoys tizimi orqali 123,2 mlrd so‘mlik qo‘shimcha QQS undirilishi kerak ekanligi aniqlangan holat faqat 9,2 ming subyekt e-invoys tizimiga ulanganida erishilgan natija - bu butun 210 ming QQS to‘lovchining 4,4 foiziga to‘g‘ri keladi. Bu nisbatni saqlab, e-invoys qamrovi 100% ga yetkazilsa, yillik qo‘shimcha fiskal samara 2-3 trln so‘m atrofida bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot natijalari Pomeranz (2015) va Fan, Keen hamda Lockwood (2019) tomonidan boshqa mamlakatlarda olingan natijalarga to‘liq mos keladi: elektron invoys tizimining kengayishi va real vaqt nazoratining kuchayishi soliq bo‘shlig‘ini kamaytirib, fiskal tushumlarni oshiradi. O‘zbekiston uchun xalqaro tajribadan asosiy farq shundaki, raqamlashtirish kichik biznesni integratsiyalash mexanizmi bilan parallel amalga oshirilishi lozim. Chunki e-invoys tizimiga faqat mavjud QQS to‘lovchilarni ulash etarli emas - avvalo kichik biznes subyektlarini zanjiriga jalb etib, so‘ng ularni raqamli infratuzilmaga ulash strategik jihatdan to‘g‘riroq.

Tadqiqotning cheklovi sifatida shuni qayd etish lozimki, 2026-yildan ishga tushirilgan AI xavf-baholash tizimining to‘liq bir yillik natijalari hali mavjud emas. Shuning uchun uning fiskal ta'siri xalqaro analoglar asosida baholangan. Keyingi tadqiqotlarda 2026-2027-yillar ma’lumotlari asosida AI tizimining O‘zbekiston sharoitidagi haqiqiy fiskal samarasini empirik baholash muhim ilmiy vazifa bo‘lib qoladi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot O‘zbekistonda QQS ma’murchiligini raqamlashtirish jarayonining fiskal natijalari bo‘yicha quyidagi asosiy xulosalar shakllantirishga imkon berdi.

EHF tizimi orqali 4 550 ta korxonaning 593,1 mlrd so‘mlik yashirin aylanmasi aniqlanib, 123,2 mlrd so‘mlik qo‘shimcha QQS undirilishi zarurligi aniqlangan - bu raqamli nazoratning haqiqiy fiskal samarasini ko‘rsatadi.

E-invoys tizimining qamrovi hozirgi 4,4 foizdan 100% ga yetkazilsa, yillik qo‘shimcha fiskal samara 2-3 trln so‘mga yetishi mumkin.

Cross-matching mexanizmi va AI xavf-baholash tizimining birgalikda ishlashi soliq bo‘shlig‘ini o‘rtacha stsenariyda 15-20% ga qisqartirib, yillik 180-350 mlrd so‘m qo‘shimcha tushum ta'minlashi kutiladi.

Raqamlashtirish jarayonini kichik biznesni QQS zanjiriga integratsiyalash mexanizmlari bilan parallel amalga oshirish strategik jihatdan zarur - aks holda faqat mavjud to‘lovchilarni raqamli nazorat ostiga olingan bo‘lar edi.

Oldindan to‘ldirilgan QQS hisoboti (pre-filled return) joriy etish kichik biznesning rioya xarajatlarini kamaytiradi va ixtiyoriy integratsiyani rag‘batlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. OECD. Tax Administration 2025: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies. - Paris: OECD Publishing, 2025.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Soliq ma’murchiligini raqamlashtirish va raqamli transformatsiya to‘g‘risida»gi PF-153-son Farmoni. - 2025-yil 4-sentabr.

3. Keen M., Smith S. VAT Fraud and Evasion: What Do We Know and What Can Be Done? // National Tax Journal. - 2006. - Vol. 59, No 4. - P. 861-887.

4. Bird R.M., Gendron P.P. The VAT in Developing and Transitional Countries. - Cambridge University Press, 2007.

5. Pomeranz D. No Taxation Without Information: Deterrence and Self-Enforcement in the Value Added Tax // American Economic Review. - 2015. - Vol. 105, No 8. - P. 2539-2569.

6. Fan H., Keen M., Lockwood B. Digital Technologies, Digital Trade and Globalisation: What Are the Tax Policy Implications? // IMF Working Paper. - 2019.

7. European Commission. VAT in the Digital Age (ViDA). Directive (EU) 2025/516. - Brussels, 2025.

8. OECD. Consumption Tax Trends 2024. - Paris: OECD Publishing, 2024.

9. Niyazmetov I.M. Estimating Value Added Tax Gap in Uzbekistan // Finance: Theory and Practice. - 2023. - Vol. 27, No 5. - P. 58-71.

10. Butayev B.J. Soliq tizimini modernizatsiya qilish sharoitida QQS ma’murchiligini takomillashtirish // European Journal of Research Development and Sustainability. - 2025. - Vol. 6, No 8.

2026-yil, iyun. №6-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko‘chasi, 2-uy**